

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«ORGANIK KIMYO VA OG'IR ORGANIK SINTEZ TEXNOLOGIYASI»
KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
«Organik kimyo va og'ir
organik sintez texnologiyasi»
kafedrası mudiri
_____ dots. X.E. Qodirov
«___» _____ 2017 y.

TALABANING MALAKAVIY BITIRUV ISHIGA
TOPSHIRIQ

BO'RONOV DILSHOD DAVRON O'G'LI

1. Loyihaning mavzusi

BUTILEN ASOSIDA MALEIN ANGIDRIDİ OLISH KIMYO SI VA
TEXNOLOGIYA SI

Institut bo'yrug'i asosida tasdiqlandi «___» _____ 2017 y. № ___/___

2. Loyihani topshirish muddati _____

Loyihani bajarish uchun olingan dastlabki ma'lumotlar: Ishlab chiqarish quvvati - 100000 t/y, optimal sharoitlar: C_4 : kislorod nisbatlari 1 : 10, selektivligi 100 %, konversiyasi 98 %

4. Loyihada echiladigan masalalar **malein angidridi ishlab chiqarish** jarayoni, jarayonning texnik iqtisodiy asosnomasi, texnologik tizimning optimal sharoitlarini tanlash, moddiy balans, issiqlik balansi, asosiy qurilmaning mexanik hisobi, mahsulot kalkulyatsiyasi, asosiy qurilmani avtomatlashtirish, ekologik muammolar, fuqoro himoyasi, atrof-muhit muxofazasi

5. Chiziladigan materiallar ruyxati **malein angidridi ishlab chiqarish** jarayoni texnologik tizimi, jarayon asosiy qurilmasi – reaktor, avtomatlashtirish qismi, iqtisodiy qism

6. Topshiriq berilgan muddat **15.05.2017 yil**

Topshiriq bajarish uchun qabul kilindi **BO'RONOV DILSHOD DAVRON O'G'LI**

Bitiruv ishini bajaruvchi talaba _____
(imzosi)

Bitiruv ishi rahbari _____
(imzosi, F.I.Sh.)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**«ORGANIK KIMYO VA OG'IR ORGANIK SINTEZ TEXNOLOGIYASI»
KAFEDRASI**

HISOB-TUSHUNTIRISH AXBOROTI

Bitiruv ishi mavzusi

**MALEIN ANGIDRID ISHLAB CHIQUARISH TEXNOLOGIYALARINI
TADQIQ QILISH**

Kafedra mudiri _____ **t.f.n., dots. X.E. Qodirov**
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Rahbar _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Maslaxatchilar:

Texnologik qism _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Iqtisodiyot _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

O'lchash asboblari va avtomatlashtirish _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Mehnat muhofazasi _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Fuqaro mudofasi _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Atrof-muxit muhofazasi _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Bitiruv ishini bajaruvchi _____
(imzo, F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

TOSHKENT-2017 y

MUNDARIJA

1.	Kirish	4
2.	Oksosintez jarayoni haqida umumiy tushuncha.....	6
3.	Xom ashyo va tayyor mahsulot tavsifi	8
4.		
5.		
6.		
7.	Asosiy qurilmaning mexanik hisobi.....	21
8.	Atrof muhit va mehnat muhofazasi.....	26
9.	Xulosa.....	31
10.	Foydalanilgan adabiyotlar.....	32

REFERAT

Malakaviy bitiruv ishi 65 betdan iborat bo'lib, 8 rasm, 12 javdal va 19 foydalanilgan adabiyotlarni o'z ichiga oladi.

BENZOL, BUTAN-BUTILEN FRAKTSIYA SI, MALEIN ANGIDRID I, OKSIDLASH, HAVO KISLOROD I, KATALIZATOR, SOKATALIZATOR, MEXANIK XISOB, MATERIALLAR BALANSI, ISSIQLIK HISOB I, AVTOMALASHTIRISH, RENTABILLIK, FOYDA

Izlanishlar ob'ekti bo'lib benzol va butanni oksidlash jarayonlar orqali maleinangidridi ishlab chiqarish, olingan mahsulotni qo'llanishining isteqbolli sohalarini aniqlashdan iborat.

Ishning maqsadi – havo kislorodidan oksidlovchi reagent sifatida foydalanib butanni selektiv oksidlash bilan malein angidridi ishlab chiqarish jarayoni texnologik asoslash, oksidlash jarayonlari usullarini, texnologiyalarini o'rganish. Zaruriy xom ashyo va tayyor mahsulotlarni tasniflash, texnologik jarayonni tasnifini o'rganish, loyihaning hisob qismini amalga oshirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq ekologik, fuqoro va mehnat muxofazasi bilan bog'liq muammolarni o'rganish. Oksidlash jarayoni bilan malein angidridi ishlab chiqarish jarayoni texnologik tizimini loyihalash.

Malakaviy bitiruv ishini loyihalash bitiruv oldi amaliyoti ma'lumotlari – texnologik reglament, adabiyotlar taxlili, internet ma'lumotlariga asoslangan

Loyihalash natijasida: oksidlash jarayoni asosiy printsiplari, jarayonga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, mavjud adabiyotlar taxlil qilindi. Texnologik tizim batafsil o'rganilib, asosiy qurilmaning mexanik hisobi, materillar balansi, issiqlik balansi, avtomatlashtirish, iqtisodiy qism, mehnat muhofazasi, atrof-muhit himoyasi va fuqoro himoyasi va boshqalar o'rganildi.

Qo'llanilish sohasi – kimyo, kimyoviy texnologiya, organik sintez sanoati.

Chizma xujjatlar ro'yixati

1. Oksidlash jarayoni bilan malein angidridi ishlab chiqarish jarayon texnologik tizimi
2. Oksidlash jarayoni bilan malein angidridi ishlab chiqarish jarayoni asosiy qurilmasi – reaktor
3. Loyihaning avtomatlashtirish qismi
4. Loyihaning iqtisodiy qismi

KIRISH

Respublikamizda kimyo, kimyoviy texnologik jarayonlar sanoati xalq xo'jaligining asosiy zvenolaridan biri bo'lib, muhim iqtisodiy bazasi hisoblanadi. Respublikamiz mustaqil bo'lgandan keyin kimyo sanoatini rivojlantirishga katta ahamiyat berildi.

“2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi” loyihasida e'tirof etilganidek, mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlandi, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi hamda mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlarni ro'yobga chiqarish ishlari tubdan yangicha qiyofa kasb etmoqda.

Mazkur Dasturda investitsiya va tarmoqlarni modernizatsiyalash dasturi asosida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari hisoblangan transport infratuzilmasi, neft va gaz, energetika, kimyo, tog'-kon metallurgiya, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoatlari va boshqa tarmoqlarda 885 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. 2009 yil davomida 690 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 303 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlar muvaffaqiyatli yakunlandi. Unga ko'ra, 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ektlari, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarida 480 dan ziyod kichik korxonalar tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz tomonidan imzolangan Xalqaro Konvensiyalar va shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish borasida ham tizimli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kiota protokoli Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyi-halarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zkiyosanoat» DAK korxonalarida «Kiota protokoli Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2007 yil 10 yanvardagi «Kiota protokoli Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qaroriga asosan Yaponiyaning «Mitsubishi Corporation» kompaniyasi bilan hamkorlikda «O'zkimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi «Navoiyazot», «Maksam-Chirchik», «Farg'onaazot» OAJlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha investitsiya loyihalari asosida atmosferaga birlamchi uglerod ikki oksidi (CO) tashlamalari miqdorini kamaytirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, korxonalarning rivojlanishi ularda ilg'or texnologiyalarni qo'llanishi bilan bog'liq. Kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, korxonalarning rivojlanishi ularda ilg'or texnologiyalarni qo'llanishi bilan bog'liq. Yuqoridagilarni xisobga olib, biz ham malakaviy bitiruv ishimizni mavjud texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik toza, raqobatbardosh sifatli mahsulotlar olishga qartdik. Hozirgi kunda kimyoviy jarayonlardan oksidlash jarayonlariga asoslanuvchi ko'plab texnologik tizimlar keng miqyoslarda ishlab chiqarishga joriy qilib, bulardan organik sintez sanoatining muhim mahsulotlari hisoblanuvchi kuislorodsaqlovchi birikmalar, jumladan malein angidridining ham muhim ahamiyatga ega. malein angidridining katta miqdori benzolni yoki butenlarni oksidlash orqali olinadi. Malein angidridi shuningdek plastik massalar, lok-bo'yoq sanoatida, dorivor preparatlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

LOYIHANING TEXNIK IQTISODIY ASOSI

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida mamlakatimiz oldida turgan maqsad va vazifalar hamda mintaqa va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ob'ektiv shart qilib qo'yayotganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan ma'ruzasida alohida ta'kidlandi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona, tarmoq, sektor yoki milliy iqtisodiyot doirasida loyihalarni tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishgacha bo'lgan davrda bu masalalar oliy o'quv yurtlarida maxsus kurs sifatida o'rganilmas edi. Shu sababli ham mustaqillikning dastlabki yillarida loyihalarni atroflicha tahlil eta oladigan mutaxassislarning mamlakatimizda yetishmasligi sezildi.

Loyiha tahlili fanini o'rgatishdan maqsad talablarga amaliyotda loyihalar tuzish, tahlil qilish va samarali loyihalarni tanlab olishning nazariy va amaliy asoslarini o'rgatishdan iboratdir.

Men tanlab olgan butilen-butadien aralashmasidan 1.3-butadien ajratib olish texnologiyasi Respublikamiz taraqqiyotiga ya'ni mashinasozlik, kauchuk va rezina ishlab chiqarish sohasida o'zining munosib o'rniga ega.

Loyihalanayotgan korxona quvvati 19800 t/yil mahsulot olish uchun mo'ljallangan.

Korxona qurilish ishlari yuqori darajada ya'ni zamonaviy texnologiyada amalga oshirilishi talab etiladi. Maxsus qurilish materiallari asosida mustahkamlik shartlariga rioya qilgan holda amalga oshirilib quriladi. Bu esa kelajakda kutilayotgan turli xil tabiiy ofatlarga chidam va bardoshlilikini belgilaydi.

Korxona joylashgan hududning iqlimi –yozda o'rtacha issiq, qishda qisqa sovuq namlik o'rtacha. Bahor va kuz oylari mo'tadil, o'zgaruvchan.

Ma'lumki har qanday ilg'or, zamonaviy ishlab chiqarish jarayoni atmosfera havosiga va oqova suvlarga va atrof-muhitga turli chiqindilarsiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Korxonada ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga tashlanadigan zaharli

gazlarning ta'sirini kamaytirish maqsadida korxona atrofini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Hududda ekologik ahvolni muayyan saqlash maqsadida korxona atrofida ma'lum gektar yerda ko'kalamzorlashtirish maqsadida o'rmon xo'jaligi barpo etiladi. Bu ko'kalamzorlashtirilgan hududning bir qismi korxona atrofidagi sanitar-himoya zonasiga to'g'ri keladi.

Loyihalangan korxona atrof-muhitga ham, aholiga ham zararsiz joyga joylashtirilishi zarur.


Korxonada ishni tashkil qilish va boshqarish uchun muhandis texnik hodimlarni Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent davlat texnika universitetiva kasb-hunar kollejlari yetkazib beradi. Malakali ishchilarni esa Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti tayyorlab beradi.

Loyihalashimizdan maqsad ekologik toza, raqobatga bardosh beradigan, sifatli, kam tannarxda qulay mehnat sharoitini yaratib, zamonaviy va samarali yangi texnologiyalar bilan ta'minlashni amalga oshiramiz. Korxonamizga kerakli xom-ashyo, yordamchi materiallar, suv, energiya, bug', yoqilg'i, transport vositalarini yetkazib berishni ham hisobga oldik.

Texnologik qurilmalarning ko'p qismi yuqori haroratli bug' bilan isitiladi. Korxonaga o'zatiladigan elektrenergiyaning quvvati 100 kV va undan ortiq bo'ladi. Quvvati 220/380V elektr tokdan foydalanish uchun zavodlarda transformator podstantsiyalar quriladi. Bo'limda transformator podstantsiyaning quvvati, zavoddagi foydalanish koeffitsienti belgilanadi. Texnologik maqsadlarda sarflangan elektrenergiya miqdori elektrenergiyani sarflash normasiga ko'ra aniqlanadi. Elektrenergiyani sarflash normasi ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori unumiga bog'liq. Xo'jalik maqsadlarda (yoritish, suv bilan ta'minlash, bug' xonalar uchun) elektrenergiya ko'p miqdorda sarflanadi.

XOMASHYO VA TAYYOR MAHSULOT VATAVSIFI

Malein anhidridi - $C_4H_2O_3$ formulaga ega bo'lgan organik modda. Toza holatida rangsiz yoki oq rangdagi kristallar



Fizik xossalari

Molyar massa	98,06 g/mol
Zichligi	1,48 g/sm ³
Ionlanish energiyasi	9,9±0,1 eV
Tsuyuq	52,8 °C
Tqay	202 °C
Tchaq	218±1 °F
Portlash chegarasi	1,4±0,1 ob. %
Bug' boqsimi	0,2±0,1 mm sim. st

Buten-1

Empirik formulasi	C_4H_8
Molekulyar massasi, g/mol	48.32
Kondensatsiya temperaturasi, °S	-6,3
Kritik temperatura, °S	146,2
Kritik bosim, °S	3,80
Havo bilan portlovchi aralashma xosil qilish chegarasi % (xajm)	1,6-9,4

Sis-buten-2

Empirik formulasi	C_4H_8
Molekulyar massasi, g/mol	48.32
Kondensatsiya temperaturasi, °S	-3,7
Kritik temperatura, °S	157,0
Kritik bosim, °S	3,80
Havo bilan portlovchi aralashma	

hosil qilish chegarasi % (xajm)	1,6-9,4
---------------------------------	---------

Trans-buten-2

Empirik formulasi	C_4H_8
-------------------	----------

Molekulyar massasi, g/mol	48.32
---------------------------	-------

Kondensatsiya temperaturasi, °S	+0,9
---------------------------------	------

Kritik temperatura, °S	-
------------------------	---

Kritik bosim, °S	-
------------------	---

Havo bilan portlovchi aralashma

hosil qilish chegarasi % (xajm)	1,6-9,4
---------------------------------	---------

Alyuminiy oksidi (korund). Oq rangli, qiyin eriydigan, termik barqaror kukun. Toblangan holatida kimyoviy inert, erituvchidagi kislotalar bilan suv va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishmaydi. Amfoter xususiyatlarni namoyon etadi, xarorat ostida kontsentrallangan kislota va asoslar bilan reaksiyaga kirishadi.

Empirik formulasi	- Al_2O_3
-------------------	-------------

Molekulyar massasi, u.b.	- 101,96
--------------------------	----------

Suyuqlanish xarorati, °S	- 2053
--------------------------	--------

Bug'lanish xarorati, °S	- > 3000
-------------------------	----------

Alyuminiy gidroksidi. Gibbsit (monoklin), bayerit (trigonal). Oq, termik barqaror kukun. Qizdirilganda vodorod sulfid bilan reaksiyaga kirishadi. Amfoter xususiyatlarni namoyon qiladi, ishqorlar bilan yuqori haroratlarda ta'sirlashadi.

Empirik formulasi	- $Al(OH)_3$
-------------------	--------------

Molekulyar massasi, u.b.	- 78,0
--------------------------	--------

Solishtirma og'irligi, g/sm ³	- 2,42
--	--------

Suyuqlanish xarorati, °S	- $1H_2O < 150$
--------------------------	-----------------

Bug'lanish xarorati, °S	- $2H_2O, 300$
-------------------------	----------------

Nikel oksidi. Nikel oksidi – noorganik binar modda bo'lib, tabiatda bunzenit deb atalmish kamyob mineral ko'rinishida uchraydi.

Empirik formulasi	- NiO
Molekulyar massasi, u.b.	- 74,69
Zichligi, g/sm ³	- 6,67
Suyuqlanish xarorati, °S	- 1682
Bug'lanish xarorati, °S	- 1230

Nikel oksidi – kristall modda bo'lib, olinish usulidan hamda termik qayta ishlashidan kelib chiqib, och yoki to'q yashil yoki qora ranglarda bo'ladi. Ikkita kristall modifikatsiyaga ega antiferromagnetik, hamda trigonal singoniya. Nikelni xavo yoki kislorod bilan xarorat ta'sirida oksidlash bilan olinadi.

Xrom oksidi. Qora yoki qizil ranglardagi kristallar. Asosli oksid hisoblanadi. Amalgammalangan xromni azot kislotasi yoki kislorod bilan oksidlab olinadi.

Empirik formulasi	- CrO
Molekulyar massasi, u.b.	- 68
Zichligi, g/sm ³	- 6,76
Suyuqlanish xarorati, °S	- 1550
Bug'lanish xarorati, °S	- 1230

Texnologik qism

Oksidlash jarayonlari kimyosi va texnologiyasi

Asosiy organik sintez sanoatida oksidlash jarayonlarini amaliy ahamiyati kattadir. Ularning birlamchi vazifalari quyidagi sabablarga asoslangan:

1. Oksidlanish natijasida olinadigan birikmalar katta ahamiyatga ega (spirtlar, aldegid va ketonlar, karbon kislotalar va ularning anhidridlari, α -oksidlar, nitrillar), ular organik sintezda oraliq maxsulotlar, erituvchilar, monomer va polimer materiallari ishlab chikarishda xom ashyo, plastifikatorlar vazifasini bajaradi.


2. Oksidlanish reaksiyalarining turli tumanligi kup organik moddalar, shuningdek uglevodorodlarning barcha sinflarining ushbu reaksiyalarga moyil ekanligini kursatadi. Bu esa oksidlanish jarayonlarini uglevodorod xom ashyolarini birlamchi kayta ishlash va ular asosida kup sonli kerakli moddalar olish imkoniyatini yaratadi.

3. Ko'pchilik oksidlovchi vositalar, ular orasida ayniksa, xavo kislorodi arzon va qulaydir. Shuning uchun, boshka usullar bilan ishlab chikarishga nisbatan oksidlash usuli bilan ba'zi bir maxsulotlar olish ancha arzonga tushishini ta'minlaydi.


Yukoridagi sabablarga kura oksidlanish jarayonlari organik sintezga keng tarkaldilar va iktisodiy samarasiz maxsulotlar olishning kup usullarini sikib chikaradilar.

2. Oksidlanish jarayonlari tavsifi

Organik kimyoda oksidlanish reaksiyalariga yullanma berish ancha kiyin, chunki noorganik moddalar singari ularda elementlarning valent uzgarishi sodir bulmaydi. Shuningdek, ularning umumiy belgisi molekulaga kislorod atomini kiritish emas; oxirgi oksidlanishga alokasi bulmagan boshka reaksiyalar natijasida sodir buladi (gidroliz, gidratatsiya) undan tashkari shunday oksidlanish reaksiyalari borki, reaksiya natijasida molekuladagi kislorod atomlari soni uzgarmaydi, masalan:



Shunday qilib, organik ximiyada va texnologiyasida oksidlanish jarayonlari deganda moddalarni oksidlovchi vositalar ta'sirida oksidlanish tushuniladi. Oksidlanishda tulik va tulik bulmagan oksidlanish reaksiyalari mavjud. Birinchi usulda moddalarni yonishda uglerod ikki va suv xosil buladi:



Organik kimyoda tulik oksidlanish jarayonida noxush oralik reaksiyalar sodir buladi. Sintez uchun tulik bulmagan oksidlanish muxim xisoblanadi, ularni uchta asosiy guruxga ajratish mumkin:

1) Uglerod zanjiri uzulmasdan sodir buladigan oksidlanish, bunda uglerod atomlari soni reaksiyaga kirishayotgan uglerod atomlari soni bilan bir xil buladi. Bu reaksiyalarni xam uz navbatda 2 ga ajratish mumkin:

a) parafin naften, olefin va alkilaromatik uglevodorodlar va ularning xosilaridagi, ayniksa spirt va aldegidlardagi tuyingan uglerod atomi buyicha alkillash.

b) Destruktiv oksidlarnish. Bu jarayon uglerod-uglerod boglarni parchalanish bilan sodir buladi. Bu jarayon parafinlar, naftenlar, olefin va aromatik uglevodorodlar ishtirokida olib boriladi. Destruktiv C - C, C = C yoki C_{Ar} - C_{Ar} bog'larda ketadi.

Reaksiyaga kirishayotgan reagent molekulalarini boglanishi bilan sodir bo'ladigan oksidlanish (oksidlanish kondensatsiyasi), bu reaksiyani oksidlanish ammonolizi deyiladi.


Oksidlovchi vositalar va oksidlash jarayonidagi texnika xavfsizligi koidalari. Asosiy va nozik organik sintezda laboratoriya sharoitida oksidlovchi sifatida permanganatlar (ishkoriy, neytral yoki kislotali muxitda), dixromat, xrom uch oksidi, ba'zi metallarning peroksidlari (marganets, natriy, kalay) kullaniladi, lekin asosiy oragnik sintez sanoatida arzon oksidlovchi vositalardan foydalaniladi. Ular katoriga molekulyar kislorodni, nitrat kislotani, peroksidli birikmalarni misol kilib olish mumkin.

Molekulyar kislorod (havo, texnik kislorod, yoki azotkislorod aralashmasi tarkibida ozgina O₂) oksidlovchi vositalar orasida eng muximi xisoblanadi. Uni yukorida urilgan kuchli oksidlash ta'siriga ega, lekin uni xavoni parchalash uchun kullash kushimcha sarf xarajatlar bilan boglanadi.

Gaz fazasida oksidlash jarayonida texnik kislorod xam kullaniladi. Nitrat kislota (ba'zida azot oksidi) kullanilishi buyicha ikkinchi urinda turadi. Uning ta'siri kupincha organik birikmani oralik nitrolash bilan ruy beradi, bu jarayon kislota kontsentratsiyasini ortishi bilan kuchayadi. Shu sababli oksidlash reaksiyalari uchun 40-60%-li HNO₃ dan foydalaniladi. Parafinlarni oksidlashda HNO₃ dan oksidlovchi sifatida foydalaniladi.

Siklik va tuyinmagan birikmalarni destruktiv oksidlashda nitrat kislotadan foydalaniladi, bunda kislorod bilan oksidlashga nisbatan yaxshi natija olinadi:

Nitrat kislota bilan oksidlanganda ular azot oksidlarigacha parchalanadi (NO va N₂O₃). Sanoatda bu usulni tejamkorligi xosil bulgan oksidlarni utilizatsiyasi va reaksiyaga kirishmagan HNO₃ ni regeneratsiyasi bilan boglik. Birinchi masalani yechish uchun suv yoki nitrat kislota muxitda azot oksidlari xavo bilan oksidlanadi, bunda nitrat kislota xosil buladi:




Peroksidli birikmalar. Asosan vodorod peroksidi va kersirka kislota (oxirgi paytlarda gidroperoksidlar) oksidlovchi vosita sifatida asosiy organik va neftkimyosi sintezida yakindan boshlab keng kullanilmokda. Narxi ancha kimmat bulgani sababli, ularni molekulyar kislorod yoki nitrat kislotasi bilan oksidlash sodir bulmaydigan jarayonlar uchun kullaniladi.

Bu asosan tuyinmagan birikmalarni epoksidlash jarayonlariga ta'alukli: oksidlash jarayonlarida oksidlovchi vositalar organik moddalar bilan portlovchi aralashmalar yoki parchalanishi mumkin bulgan birikmalar xosil kiladi. Suyuk fazadagi oksidlash reaksiyalarda organik moddalarning bug bosimi kancha yukori bulsa portlash xavfi shuncha kuchli buladi, bunda xavo yoki kislorod bilan

portlovchi aralashmalar xosil buladi. Nitrat kislota va boshka oksidlovchilar xam organik moddalar bilan portlovchi aralashmalar xosil kiladi.

Vodorod peroksid va persirka kislota ishtirokida xavf bulishini sababi shundan iboratki, ularning parchalanish natijasida suv va sirka kislota xosil bulishini ekzotermik tarzda sodir buladi:



Kursatilgan peroksid birikmalarining parchalanishi uzgaruvchan valentli metallar (Fe, Cu, Mn, Co, Cr) va ularning tuzlari ishtirokida katalazlanadi. Shuning uchun kontsentratsiyalangan vodorod peroksid va ayniksa peroksid kislotalar organik modda yukligi portlash xususiyatiga ega. Ularni eritmalarda va boshkariladigan temperatura sharoitida kullash bunday kiyinchiliklarni oldini olishga imkoniyat yaratadi. Oksidlash vositalari va ularning aralashmalarini organik moddalar bilan portlashi mumkinligini bilgan, xolda oksidlash texnologik jarayonlarini yaratishda e'tiborga olish lozim.

4. Radikal zanjirli oksidlash.

Bunday reaksiyalar tuyingan uglerod atomi buyicha oksidlash uchun bulib, uch gurux jarayonlardan iborat:

- a) parafin va ularning xosilalarini oksidlash;
- b) sikloparafin va ularning xosilalarini oksidlash;
- v) alkilaromatik uglevodorodlar yon zanjirlarini oksidlash.

Ushbu jarayonlarda gidroperoksidlar, spirtlar, aldegidlar, karbon kislotalar va ularning angidridlari xosil buladi.

Radikal-zanjirli oksidlash asosan suyuq fazada gomogen sharoitda sodir buladi. Uning ikki xili mavjud: termik (avtooksidlash) va uzgaruvchan valentli metall tuzlari katalizatorligida (CO, Mn va x.k) boradigani.

Uglevodorodlarning oksidlanishi natijasida bir kator molekulyar maxsulotlar: gidroperoksidlar, spirtlar, ketonlar, aldegidlar, karbon kislotalar, murakkab efirlar va murakkab polifugktsiyali birikmalar xosil buladi. Oralik faol zarrachalar, bu uglerod atomidagi (R-) yoki kislorodlar atomidagi (ROO·, RCOOO·) erkin valentlik radikallar hisoblanadi.


Gidroperoksidlar – uglevodorodlarning oksidlanishdan xosil bulgan birlamchi molekulyar maxsulot bulib, ularning xosil bulishidagi zvenosi kuyidagi kurinishga ega. Gidroperoksidlar birikmalar xisoblanadi, oksidlanish natijasida boshka maxsulotga aylanadi.

Spirit va karbonilli birikmalar uglevodorodlar oksidlanishning ikkilamchi maxsulotlari xisoblanadi. Spirtlar parafin va naftenlarni oksidlash natijasida ko'p mikdorda xosil buladi, lekin alkilaromatik birikmalardan emas.

Malein angidiridi ishlab chiqarish texnologiyasi

Sanoat sharoitlarida uglevodorodlar fraktsiyalari C_4 reaktorga kirishdan avval havo bilan aralashtiriladi (konsentratsiya C_4 -0,3-1,0%) va so'ngra reaktorga uzatiladi. Oksidlanish jarayoni 350-500 °S temperaturada atmosfera yoki bir qancha yuqori bosimda o'tkaziladi. Kontakt gazlari sovutilgandan so'ng absorbtсион kolonnaga uzatiladi, u yerda ulardan organik erituvchilar yordamida mahsulot ajratib olinadi. Oddiy texnologiyaga nisbatan bu jarayonning afzalliklari quyidagilardir: tozalashning darajasining yuqoriligi va maxsulot yuqori unum bilan chiqishi (~60%).

Ammo C_4 uglevodorodlar fraktsiyasidan mahsulotning chiqishida qator agressiv ikkilamchi mahsulotlar hosil bo'ladi. Shuning uchun texnologik qurilma zanglamas po'latdan tayyorlanadi.



Oksidlash jarayoni gaz fazada katalizatorning qo'zg'almas qatlamida buten : havo 1:25-30 nisbatida o'tkaziladi. Havoning ortiqcha miqdori nazariy ma'lumotlarga nisbatan portlovchi aralashgmani hosil bo'lishini oldini oladi, katalizatorning faolligini saqlaydi, chunki aktiv V_2O_5 vanadiy (IV) oksidigacha qaytarilishi mumkin. Reaktsion aralashmani havo bilan katta miqdorda

suyultirilganda reaksiya maxsulotlarining konsentratsiyasi uncha katta bo'lmaydi, odatda reaksion gaz tarkibida quyidagilar mavjud (%).


Malein anhidrid – 1

Kislorod - 8-9

Uglerod dioksidi - 5-9

Azot - 75-80

Butenlarni malein anhidridiga oksidlash jarayonining texnologik sxemasi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Butenlarni gaz fazada oksidlash orqali malein anhidridi ishlab chiqish texnologik sxemasi.

1-Issiqlik almashgich; 2-Sovutgich; 3-Kontakt anhidrati (reaktor); 4-Qozon-utilizator; 5-Separator; 6-Skrubber; 7-dehidrator; 8-maleinangidrid xomashyosi uchun idish; 9-rektifikatsion kolonna; 10-kondensator-sovutgich.

Yuqori tozalikka ega bo'lgan butenlar isitgichga o'tadi va havo bilan aralashadi. Aralashma issiqlik almashgichda 1 qizdiriladi, so'ngra trubkali reaktorga 3 uzatiladi, u yerda katalizator bilan kontaktlashadi. Trubalar o'rtasida sirkulyatsiyalanayotgan tuzlar eritmasi (nitrit-nitrat aralashmasi) yordamida reaksiya issiqligi chiqariladi va ular yuqori bosimli bug'ni olish uchun ishlatiladi.

Reaktordan chiqayotgan gazlar sovutishning 3 ta bosqichidan o'tadi. Birinchi bosqichda (qozon-utilizatorlari) suv bug'i hosil bo'ladi. 2 chi bosqichda xomashyo bug'-havo aralashmasi issiqlik almashgich 1 da qizdiriladi. 3 chi bosqichda reaksiya maxsulotlari sovutgich 2 da iliq suv bilan sovutiladi. So'ngra reaksion gazlar tomchilagich orqali o'tadi, bunda smolali kondensat tutiladi va separator 5 da ajratiladi va suv bilan to'yintirilayotgan skrubberga 6 uzatiladi. U yerda malein anhidridi tutiladi va so'ngra degidratorga 7 uzatiladi. Ishchi sharoitlar yaxshi boshqarilayotganligi sababli degidratordagi 7 ma'lum bir malein kislotaning qismi izomerni fumar kislotaga aylanadi. Xom maxsulot skrubberning 5 pastki qismidan va degidratordan 7 idishga 8 yuboriladi va u yerdan so'nggi tozalanish uchun rektifikatsion kolonnaga 9 uzatiladi. Tayyor maxsulot granulanadi, qadoqlanadi va iste'molchilarga yetkaziladi.

Maxsulotning chiqishi 65-70%.

Jarayonning o'zgaruvchan parametrlari quyidagilardir: xomashyo gazidagi uglevodorodlarning kontsentratsiyasi, reaktordagi temperatura va kontakt vaqti. n-Buten va n-butanning maxsulotga oksidlash jarayonlari quyidagicha:

	n-buten	n-butan
Temperatura, °S	380 (350-400)	500
Bosis, MPa	0,18-0,35	Atm
Katalizator	Mo-V-P silikagelda	Fe-V ₂ O ₅ -P ₂ O ₅ alyumosilikatda

Butan-butilen fraktsiyasining oksidlanish jarayoni 2 ta variantda amalga oshiriladi: qo'zg'almas va mavxum qaynash qatlami katalizatorida o'tkaziladi.

5-jadvalda maxsulotning olinishining ba'zi ko'rsatkichlari keltirilgan.

Shunday qilib, n-butandan katalizatorning mavxum qaynash qatlamida oksidlash yo'li bilan olinadigan maxsulotning tannarxi boshqa usullar bilan olinadiganlardan ko'ra ancha arzon.

Jadval 5

Maxsulotning olishi jarayonining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich	Benzolning oksidlanishi	n-butenlarning oksidlanishi		Katalizatorning mavxum qaynash qatlamlarida n-butaning oksidlanishi
		Katalizatorning qo'zg'almas qatlamida	Katalizatorning mavxum qaynash qatlamida	
Xomashyoning sarfi, t 1 t malein angidridiga	1,29	1,45	1,31	1,15
Xomashyoning narxi, %				
Benzol	100	-	-	-
n-buten	-	180	180	-
n-butan	-	-	-	65
Yordamchi material, %	100	48	68	65
Energetik sarf, %	100	170	71	71
Malein angidridining tannarxi, %	100	108	91	43

MATERILALAR BALANSI

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kimyoviy-texnologik jarayon bir necha sistemalar yig'indisini o'z ichiga oladi: turli qurilmalarda turlicha fizik, kimyoviy va yoki fizik-kimyoviy jarayonlar amalga oshishi bilan bir butun texnologik tizimni tashkil etadi. Dastlabki xom-ashyodan maqsaddagi mahsulot olish imkoniyatini beruvchi o'zgarishlar ketma-ketligi kimyoviy-texnologik jarayon hisoblanadi. Kimyoviy-texnologik jarayonlarni tatbiq qilishda tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq turli miqdoriy hisoblashlar amalga oshiriladi. Bu hisoblashlarning turi va yo'lidan qat'iy nazar gidrodinamik, issiqlik, massaalmashinish va kinetik qonuniyatlar hisobga olinadi.

Materiallar balansi energetik (issiqlik) balans bilan bir qatorda texnologik jarayonning asosiy hisob qismidir. Materiallar va issiqlik balansi kimyoviy-texnologik tizimga kiruvchi har qanday qurilma, uning bir qismi yoki butun texnologik tizim uchun tuzilishi mumkin.

Dastlabki ma'lumotlar:

- qurilmaning ishlab chiqarish unumdorligi, t/sut 100

- Butan-butilen fraktsiyasi tarkibi, % xajm

butilen 83

butan 17

- butilen konqersiyasi, % 95

- dastlabki aralashma tarkibidagi butilenlar konsentratsiyasi 1,3

Oksidlash jarayoni tenglamasi: $C_4H_8 + 3O_2 \rightarrow 3H_2O + C_4H_2O_3$

Materiallar oqimi sxemasi:

kirish G_1 – butan-butilen fraktsiyasi tarkibi, kg/soat

G_2 – havo miqdori, kg/soat

G_3 – dastlabki xom ashyo aralashmasi miqdori, kg/soat

G_4 – reaksiyon aralashma miqdori, kg/soat

Materiallar balansi tenglamasi: $G_1 + G_2 = G_4$

1. Qurilmaning unumdorligini hisoblaymiz:

$U_q = 100 * 1000 / 24 = 4166,6667 \text{ kg/ soat}$

2. reaksiya tenglamasidan kelib chiqib:

x (kislorod) = 4081,6327 kg/ soat

y (butilen) = 2380,9524 kg/ soat

z (suv) = 2295,9184 kg/ soat

3. Butilennlarning umumiy miqdori:

2380,9524 kg/ soat – 95%

m (butilen) – 100%

m (butilen) = 2506,2657 kg/ soat.

4. Butan-butilen fraktsiyasining miqdorini hisoblaymiz G_1 :

1-jadval

Butan-butilen fraktsiyasining miqdori

Tarkibi, % xajm	Miqdoriy tarkibiy, kmol	Miqdori kg/soat
Butilen	44,7547	2506,2657
Butan	9,1666	531,6628
Jami	53,9213	3037,9285

5. Dastlabki aralashmalar miqdorini hisoblaymiz G_3 :

2-jadval

Dastlabki aralashmaning miqdori

Tarkibi, % xajm	Miqdoriy tarkibiy, kmol	Miqdori kg/soat
Butilen	1,3	2506,2657
Butan	0,27	531,6628
Havo	98,43	98273,6891
Jami		101311,6176

6. Havo miqdorini hisoblamiz G_2 :

3-jadval

Havo tarkibi va miqdori

Tarkibi, % xajm	Miqdori kg/soat
Kislorod	20637,4748
Azot	77636,4748
Jami	98273,6891

7.Reaktsion aralashma miqdorini hisoblash:

4-jadval

Reaktsion aralashmaning miqdori

Tarkibi, % xajm	Miqdoriy tarkibiy, kmol	Miqdori kg/soat
Butilen	0,1237	125,3133
Butan	0,5248	531,6628
Kislorod	16,3415	16555,842
Azot	76,6311	77636,4748
Malein angidridi	4,1127	4166,6667
Suv	2,2662	2295,9184
Jami		101311,6176

4-jadval

Materiallar balansi jadvali

Kirish		Chiqish	
Tarkib	kg/soat	Tarkib	kg/soat
1.Oqim G_1 , BBF:		1.Oqim G_4 , reaktsion aralashma:	
Butilen	2506,2657	Butilen	125,3133
Butan	531,6628	Butan	531,6628
Jami:	3037,9285	Kislorod	16555,842
2.Oqim G_2 , havo:		Azot	77636,4748
Kislorod	20637,4748	Malein angidrid	4166,6667
Azot	77636,4748	Suv	2295,9184
Jami:	98273,6891		
Summada:	101311,6176	Summada:	101311,6176

QURILMANING ISSIQLIK BALANSI

Issiqlik sarfi:

$$Q_D = G_D \cdot (R + 1) \cdot r_D = \frac{3164.83}{3600} \cdot (7.4 + 1) \cdot 2.59 \cdot 10^5 = 1.91 \cdot 10^6 \text{ Vt}$$

Bunda

$$r_D = \overline{x_D} r_{HK} + (1 - \overline{x_D}) \cdot r_{BK} = 0.91 \cdot 246800 \cdot (1 - 0.91) \cdot 390 \cdot 10^3 = 2.59 \cdot 10^5 \text{ Дж / кг}$$

Bundan

$r_{HK} = 246800 \text{ (Dj/kg)}$ – 680°S dagi issiqlik tashuvchi solishtirma issiqligi yuqori qismida.

$r_{BK} = 390000 \text{ (Dj/kg)}$ – 713°S dagi issiqlik tashuvchi solishtirma issiqligi pastki qismida.

Isituvchi gazlarning kub qoldiqlariga issiqlik uzatishi:

$$Q_k = 1.03 \cdot (Q_D + G_D c_D t_B + G_W c_W t_H + G_F c_F t_F) = 1.03 \cdot (1.91 \cdot 10^6 + \frac{3165}{3600} \cdot 1.056 \cdot 10^3 \cdot 62.8 + \frac{4835}{3600} \cdot 1927 \cdot 79.4 + \frac{8000}{3600} \cdot 1.47 \cdot 10^3 \cdot 75) = 1934370 \text{ Bm}$$

$$\text{bunda } c_D = 1056 \frac{\text{Дж}}{\text{кг} \cdot \text{K}}$$

$$c_W = 1927 \frac{\text{Дж}}{\text{кг} \cdot \text{K}}$$

$$c_F = \overline{x_F} \cdot C_{HK} + (1 - \overline{x_F}) \cdot C_{BK} = 0.39 \cdot 984.65 + (1 - 0.39) \cdot 1780 = 1.47 \cdot 10^3 \frac{\text{Дж}}{\text{кг} \cdot \text{K}}$$

Qurilmadagi issiqlik sarfi:

$$Q_F = 1.05 \cdot G_F c_F \cdot (t_F - t_{i\dot{\div}}) = 1.05 \cdot \frac{8000}{3600} \cdot 1.47 \cdot 10^3 (75 - 18) = 1.95 \cdot 10^5 \text{ Vt} \quad \text{bunda}$$

$$c_F = \overline{x_F} \cdot C'_{HK} + (1 - \overline{x_F}) \cdot C'_{BK} = 0.39 \cdot 984.65 + (1 - 0.39) \cdot 1780 = 1.47 \cdot 10^3 \frac{\text{Дж}}{\text{кг} \cdot \text{K}}$$

qurilmadagi o'rtacha xarorat $\frac{750 + 680}{2} = 715^\circ\text{C}$ bo'lganda

Qurilmadagi uzatilvchi issiqlik sarfi:

$$Q_{xD} = G_D c_D \cdot (t_B - t_{i\dot{\div}}) = \frac{3165}{3600} \cdot 1056 (62.8 - 25) = 3.509 \cdot 10^4 \text{ Vt}$$

$$c_D = 1056 \frac{\text{Дж}}{\text{кг} \cdot \text{К}} \text{ bo'lganda}$$

Big' qatlam bilan olinuvchi issiqli:

$$Q_{xW} = G_W c_W (t_H - t_{i\dot{\alpha}}) = \frac{4835}{3600} \cdot 1927 \cdot (79.4 - 25) = 1.407 \cdot 10^5 \text{ Vt}$$

$$c_W = 1927 \frac{\text{Дж}}{\text{кг} \cdot \text{К}} \text{ bo'lganda}$$

Issituvchi bug' qatlamining sarfi $P_{a6c} = 4 \frac{\text{КГС}}{\text{см}^2}$ bosim bo'lganda quruqlik darajasi 95% bo'lganda.

a) Bug'latgichda:

$$G_{r. II.} = \frac{Q_K}{r_{r. II.} x} = \frac{1934370}{2264 \cdot 10^3 \cdot 0.95} = 0.899 \frac{\text{кг}}{\text{с}} \text{ bunda}$$

$r_{r. II.} = 2264 \cdot 10^3 \text{ Дж/кг}$ – issituvchi bug' solishtirma issiqligi.

b) Aralashma uchun.

$$G_{r. II.} = \frac{Q_F}{r_{r. II.} x} = \frac{1.95 \cdot 10^5}{2264 \cdot 10^3 \cdot 0.95} = 0.09 \frac{\text{кг}}{\text{с}}$$

jami: 0,99 kg/s yoki 3,564 t/ch.

Ma'lumki oksidlash jarayoni yuqori xaroratlarda amalga oshiriladi. Issiqliklar oqimini xisoblashda oksidlash jarayoni turli zonalarga bo'lib o'rganiladi. Har bir bosqich xaroratni boshqarish va nazorat qilish uchun issiqlik balansini xisoblaymiz.

$$Q_{um} = Q_{cm} + Q_a + Q_o + Q_{kab} + Q_{yo'q}$$

Q_{um} -umumiy issiqlik oqimi

Q_{cm} -piroliz jarayonini amalga oshirish uchun issiqlik sarfi

Q_a -qurima korpusini qizdirish uchun issiqlik sarfi

Q_o -issiqlik izolyatsiyasini qizdirish uchun sarflanadigan issiqli

Q_{kab} -qurilma qobig'ini qizdirish uchun sarflanadigan issiqlik

$Q_{yo'q}$ -atrom-muxtilga yo'qotiluvchi issiqlik miqdori

Bu kattaliklarni bosqichlar bo'yicha aniqlab topamiz. Ma'lumki reaktorga uzatiluvchi umumiy xom ashyo miqdori 14323 kg/soat, dastlab reaksiya

aralashmaning issiqlik sig'imi $S_{r.a.}$ ni aniqlab olamiz, buning uchun $S_{km}=5,1$ J/kg*K, $T_{g,sm}= 450^{\circ}S$ yoki 723 K, $T_{sm}=775^{\circ}S$ yoki 1048 K parametrlardan foydalanmiz.

$$\text{Bunda } Q_a = G_m C_a (T_{cm} - T_{g,cm}) = 23740,4 \text{ kJ}$$

Agar G_a qurilmaning reaksiya vaqtidagi massasi 4,91 t bo'lsa

$$Q_a = G_a C_a (T_{cm} - T_{g,cm}) = 22855,9 \text{ kJ}$$

$$G_{qob} - \text{qobiq massasi, } G_{qob} = 1,7 \text{ t}$$

S_{qob} -qobiq materilining solishtirma issiqlik sig'imi, J/kg*K, va 0,491 ga teng

$$Q_{yo'q} = F d \Delta T C * 3600 = 484 \text{ kJ}$$

F-issiqlik yo'qotilish yuzasi, $1,9 \text{ m}^2$

$$\Delta T = (T_2 - T_1) / 46 = 7,065$$

$$S = 0,12$$

Konveksiya va nur chiqarishi orqali issiqlik berish koeffitsenti quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$L = 9,74 + 0,07 \Delta T = 9,74 + 0,07 * 7,065 = 10,24$$

Qurilma qopqog'i va izolyatsiyalangan korpusning issiqlik yo'qotishlari alohida aniqlanadi: $Q_a = 3839 \text{ kJ}$; $Q_o = 3526 \text{ kJ}$.

$$Q_n = 23740,4 + 22855,9 + 484 + 3839 + 3526 = 54445,3$$

Jadval tuzamiz

KIRISH		ChIQISH	
Issiqlik	Miqdori	Issiqlik	Miqdori
Reaktorga kiruvchi umumiy issiqlik miqdori	54445,3	Q_{cm}	23740,4
		Q_a	22855,9
		Q_o	484
		Q_{kab}	3839
		$Q_{yo'q}$	3526
Jami	54445,3	Jami	54445,3

MEXANIK HISOB

Dastlab distilyatning massa sarfini G_d kg/ch, kub qoldig'ini G_w kg/ch aniqlab olamiz.

Materiallar balansiga asoslanib:

$$G_d + G_w = G_F - \text{umumki qurilmaga kiruvchi maxsulotlar miqdori}$$

$$G_d \cdot x_D + G_w \cdot x_W = G_F \cdot x_F - \text{past xaroratda ajraluvchi maxsulotlar}$$

$$G_d + G_w = 14323 \text{ kg/soat}$$

$$\text{Bunda } G_d \cdot 0,94 + G_w \cdot 0,03 = 3120$$

Materiallar balansini ko'effitsientlarini aniqlash orqali G_D va G_W : $G_D = 3164,83$ kg/ch, $G_W = 4835,16$ kg/ch qurilmaga 1 soat davomida kiruvchi va chiquvchi maxsulotlar miqdorini aniqlab olamiz.

Keyingi hisoblashlar uchun umumiy xom ashyo miqdori va kub qoldigining miqdorini massa ulushlarida berilgan deb olamiz.

a) chiqarish qismi perimetrini topamiz P:

$$\Pi = |0,7 - 0,75| \cdot D = 0,7 \cdot 1,4 = 0,98 \text{ m}$$

b) qurilma yuqori qismidagi xom ashyoning mol massasini hisoblab topamiz:

$$M'_{\text{ж.ср.}} = x'_{\text{ср.}} \cdot M_{\text{HK}} + (1 - x'_{\text{ср.}}) \cdot M_{\text{BK}} = 0,6 \cdot 119,4 + (1 - 0,6) \cdot 78,06 = 102,9 \frac{\text{кг}}{\text{кмоль}}$$

v) qurilmaga xom ashyo uzatish xajmiy sarfini topamiz:

$$Q'_{\text{ж.}} = (G_D \cdot R \cdot M'_{\text{ж.ср.}}) / (M_D \cdot \rho_{\text{ж.}}) = (3164,83 \cdot 7,4 \cdot 102,9) / (115,7 \cdot 1113) = 18,76 \frac{\text{м}^3}{\text{ч}}$$

g) Qurilmani chiziqli boyitish zichligi:

$$q_1 = \frac{Q'_{\text{ж.}}}{\Pi} = \frac{18,76}{0,98} = 19,15 \frac{\text{м}^2}{\text{ч}}$$

q_1 ni qabul qilingan ko'rsatkich q_0 bilan taqqoslab, qurilma diametiri to'g'ri tanlab olingan deyish mumkin.

QURILMA BALANDILIGINI HISOBLAMIZ

Qurilmadagi quvirlar sonini yuqri qismida $n'_T = 9$, apastki qismida $n''_T = 14$, jami 23 deb qabul qilamiz Komponentlarning uchuvchanlik koeffitsientlarni jadvallar orqali aniqlamaymiz

$$\alpha = P_{HK} / P_{BK} = 750 / 700 = 1,07, \text{ bunda:}$$

$$R_{NK} = 750 \text{ mm.rt.st.}$$

$$R_{VK} = 700 \text{ mm.rt.st.}$$

Qurilma belgilangan xaroratlaridagi komponentlarning o'rtacha dinamik qovushqoqligini topamiz:

$$t_{cp} = \frac{t_B + t_H}{2} = \frac{62.8 + 79.4}{2} = 71.1^\circ\text{C}$$

$$\mu_{HK} = 0,38 \cdot 10^{-3} \text{ Pa} \cdot c$$

$$\mu_{BK} = 0,36 \cdot 10^{-3} \text{ Pa} \cdot c$$

Qurilmadagi suyuq qatlam qontsentratsiyasi:

$$X_{sr} = (x'_{sr} + x''_{sr}) / 2 = (0,6 + 0,15) / 2 = 0,38$$

Shunday qilib dinamik qovushqoqlik koeffitsienti

$$\mu = x_{cp} \cdot \lg \mu_{HK} + (1 - x_{cp}) \cdot \lg \mu_{BK} = 0,38 \cdot \lg 0,38 \cdot 10^{-3} + (1 - 0,38) \cdot \lg 0,36 \cdot 10^{-3} = -0.43$$

$$\mu = 10^{-0.43} = 0,37 \text{ mPa} \cdot c$$

$$\alpha \cdot \mu = 1,07 \cdot 0,37 = 0,4 \text{ mPa} \cdot c$$

Issiqlik uzatish FIK $\eta_{cp} = 0,6$

Xom ashyo siljish uzunligi:

$$l = D - 2b = 1,4 - 2 \cdot 0,2 = 0,1 \text{ m}, \text{ bunda:}$$

$$b = \frac{D}{2} \cdot \left[1 - \sqrt{1 - \left(\frac{\Pi}{D} \right)^2} \right] = \frac{1,4}{2} \cdot \left[1 - \sqrt{1 - \left(\frac{0,98}{1,4} \right)^2} \right] = 0,2 \text{ m}$$

Suyuqlik ko'chish masofasi $\Delta = 0$

Issiqlik uzatish FIK:

$$\eta_l = \eta_{cp} \cdot (1 + \Delta) = 0,6$$

Qurilmadagi quvirlar aniq sonini topamiz:

$$n'_o = n'_T / \eta_l = 9 / 0,6 = 15$$

$$n''_o = n''_T / \eta_l = 14 / 0,6 = 23.33 \approx 24$$

Umumiy quvirlar soni:

$$n = n'_o + n''_o = (15 + 24) = 39$$

$$15\text{-}20\% \text{ zaxira bilan: } n = 1,15 \cdot (n'_o + n''_o) = 1,15 \cdot 39 = 44.85 \approx 45$$

Qurilma umumiy balandigi:

$$H_T = (n - 1) \cdot H = (45 - 1) \cdot 0,4 = 17,54 \text{ m}$$

Quvirlardagi issiqlik tashuvchining gidravlik qarshiligi suyuq qatlam bo'yicha:

$$\Delta p = \Delta p_{\text{cyx}} + \Delta p_{\text{жс}}, \text{ Pa}$$

a) Yuqorida:

$$\Delta p'_{\text{cyx}} = \xi \frac{\omega_0^2}{2} \cdot \rho'_{\text{cp}} = 3,63 \cdot \frac{12,3^2}{2} \cdot 3,73 = 1,02 \cdot 10^3 \text{ Pa}$$

Bunda ξ - qarshilik koeffitsienti (ochiq zonalarda $\xi = 3,63$)

ω_0 - issiqlik tashuvchi tezligi

$$\omega_0 = \frac{\omega_{\text{max}}}{f} = \frac{1,36}{0,11} = 12,3 \text{ m/s}$$

f - quvir ko'ndalang kesim yuzasi

ρ'_{cp} - kolona yuqorisidagi bug' oqimi zichligi

Issiqlik bosimi egri qismidagi yo'qotilishlar:

$$\Delta P_{\text{жс}} = \rho_{\text{жс}} \cdot g(h_n + \Delta h') = 1113 \cdot 9,81 \cdot (0,05 + 0,0214) = 780,4 \text{ Pa, gde:}$$

h_n - quvir egri qismi uzunliklari 30-70 mm deb olsak

$$\Delta h' = 3 \cdot 10^{-3} \cdot \left(\frac{Q'_{\text{жс}}}{\Pi} \right)^{2/3} = 3 \cdot 10^{-3} \cdot \left(\frac{18,77}{0,98} \right)^{2/3} = 0,0214 \text{ m}$$

Boyitish zonasi uchun:

$$\Delta p' = \Delta p'_{\text{cyx}} + \Delta p'_{\text{жс}} = 1022 + 780,4 = 1802,4 \text{ Pa}$$

b) Qurilma apastki qismida

Qarshilikni aniqlaymiz:

$$\Delta P_{\text{cyx}}'' = \xi \cdot \frac{\omega_0^2}{2} \cdot \rho_{\text{cp}}'' = 3,63 \cdot \frac{12,35^2}{2} \cdot 3,43 = 951 \text{ Па}$$

Quvirlardagi issiqlik tashuvchi oqim pastki qismida:

$$M_{\text{ж.ср.}}'' = x_{\text{cp}}'' \cdot M_{\text{HK}} + (1 - x_{\text{cp}}'') \cdot M_{\text{BK}} = 0,157 \cdot 119,4 + (1 - 0,157) \cdot 78,06 = 84,53 \text{ г / моль}$$

Xom ashyo o'rtacha mol massasi:

$$M_F = x_F \cdot M_{\text{ж.ср.}}'' = x_{\text{cp}}'' \cdot M_{\text{HK}} + (1 - x_F) \cdot M_{\text{BK}} = 0,294 \cdot 119,4 + (1 - 0,29) \cdot 78,06 = 90,18 \text{ г / моль}$$

Qurilma pastki qismidagi issiqlik tashuvchi sarfi:

$$Q_{\text{ж}}'' = \left(\frac{G_D \cdot R}{M_D} + \frac{G_F}{M_F} \right) \cdot \frac{M_{\text{ж.ср.}}''}{\rho_{\text{ж}}} \left(\frac{3164,83 \cdot 7,4}{115,7} + \frac{8000}{90,18} \right) \cdot \frac{84,53}{1113} = 22,11 \frac{\text{м}^3}{\text{ч}}, \text{ bunda:}$$

$$\Delta h'' = 3 \cdot 10^{-3} \cdot \left(\frac{Q_{\text{ж}}''}{\Pi} \right)^{2/3} = 3 \cdot 10^{-3} \cdot \left(\frac{22,11}{0,98} \right)^{2/3} = 0,024 \text{ м}$$

Quvirlardagi issiqlik tashuvchi gidravlik qarshiligi:

$$\Delta p_{\text{ж}}'' = \rho_{\text{ж}} \cdot g \cdot (h_n + \Delta h'') = 1113 \cdot 9,81 \cdot (0,06 + 0,024) = 807,5 \text{ Па}$$

Boyitish zonasidagi qarshilik:

$$\Delta p'' = \Delta p_{\text{cyx}}'' + \Delta p_{\text{ж}}'' = 951 + 807,5 = 1758,5 \text{ Па}$$

Butun zona bo'ylab issiqlik tashuvchining o'rtacha bosim:

$$\Delta p = n_{\text{d}}' \cdot \Delta p' + n_{\text{d}}'' \cdot \Delta p'' = 15 \cdot 1802,4 + 24 \cdot 1758,5 = 6,92 \cdot 10^4 \text{ Па}$$

Qurilma balandligini tekshirib ko'ramiz

Qurilma balandligida:

$$\begin{matrix} H_n' < H + h_n & / A / \\ y < b & / B / \end{matrix}, \text{ bunda:}$$

H_n' - buzlatish zonasi balandilig, m

u- gaz oqimi chiqish tezligi, m/s

b- uzatish zonasining maksimal kengligi

gaz qatlamining siqib chiqarish zonasini bo'yicha H_n' :

$$H_n' = \frac{h'}{\rho_n} = \frac{0,303}{0,65} = 0,46 \text{ м}, \text{ bunda:}$$

h' - siqib chiqarish zonasi qatlamining balandilig.

ρ'_n -bug' qatlam zichligi

Isitish zonasining balandligi:

$$h' = h_n + \Delta h + \Delta + \left(\frac{\Delta p'' + \Delta p_{\text{жс.н.}}}{\rho_{\text{жс}}} \right) \cdot \frac{1}{g} = 0,05 + 0,024 + 0,005 + \left(\frac{1476,9 + 22,01}{1113} \right) \cdot \frac{1}{9,81} = 0,24_m,$$

bunda:

$\Delta p''$ - o'tacha bosim

Suyuqlik qatlamining xarakatlanish qarshiligi:

$$\Delta p_{\text{жс.н.}} = 1,6 \cdot \rho_{\text{жс}} \cdot \omega_{\text{жс}}^2 = 1,6 \cdot 1113 \cdot 0,625^2 = 696 \text{Па}, \text{ bunda}$$

ω_j - chiqish qismi minimal kesim dan o'tuvchi suyuqlik tezligi:

$$\omega_{\text{е}} = k_{\text{е}} \cdot \omega^* = 0,8 \cdot 0,138 = 0,111, \text{ bunda:}$$

$k_{\text{жс}}$ - 0,8-0,9 bo'lganda

$$\omega^* = 1,18 \cdot \sqrt[4]{\frac{g \cdot \sigma \cdot (\rho_{\text{жс}}'' - \rho_n)}{\rho_{\text{жс}}''^2}} = 1,18 \cdot \sqrt[4]{\frac{9,81 \cdot 21,9 \cdot 10^{-3} \cdot (1113 - 3,56)}{1113^2}} = 0,138 \frac{m}{c}, \text{ bunda:}$$

$$\sigma = x_{cp} \cdot \sigma_1 + (1 - x_{cp}) \cdot \sigma_2 = 0,38 \cdot 23,03 \cdot 10^{-3} + (1 - 0,38) \cdot 21,2 \cdot 10^{-3} = 21,9 \cdot 10^{-3} \frac{H}{m}, \text{ bunda}$$

Oqim chiqish masofasi:

$$y = 0,8 \cdot \sqrt{\Delta h'' \cdot (H + h_n - h')} = 0,8 \cdot \sqrt{0,024 \cdot (0,4 + 0,05 - 0,24)} = 0,083_m$$

Shunday qilib /A/ va /V/ shartlar bajarilmoqda:

$$0,4 < 0,4 + 0,083 \Rightarrow 0,4 < 0,48 \text{ /A/}$$

$$0,083 < 0,2 \quad \text{/B/}$$

$$\text{Bundan } \omega_{\min} = \frac{5}{\sqrt{\rho_n}} = \frac{5}{\sqrt{3,56}} = 2,65$$

$$\omega_{\min} < \omega_{\text{пас}} \text{ shartni bajarilishini kuzatish mumkin (2,65 < 12,35)}$$


SDK – qo'zg'oluvchan nasadkali skrubber, agressiv moddalarni tozalash va sovitish uchun ishlatiladi. Skrubber vertikal kolonnadan iborat bo'lib, ichki qismisha tayanch va chegaralaovchi to'rlar o'rnatilgan, ular orasiga esa g'ovaqli rezinalardan tayyorlangan nasadkalar joylanadi. Sistema uchta yarusli forsunkalardan iborat bo'lib, qurilmaning ichki korpusiga joylanadi: quyi yaruslar yuqoriga, ikki yuqori yaruslar esa pastga yo'naltiradi. Qurilmaning yuqori qismiga

markazbo'ylab aylanuvchi tomchiushlagichlar va qator lopastlar va cho'ntaklar o'rnatiladi.

Qurilma asosiy bo'limlari materiallari: qobiq, patrulkalar, to'rlar – 10X17N13M2T po'latdan; forsunkalar –12X18N10T po'latdan.

Qurilmaning asosiy parametrlari

Skrubberdagi komponentlar tezligi, m/s	4–7,5
Tozalanayotgan komponentlar xarorati, °S	5 – 120
Gidravlik qarshiligi, kPa (kgs/m ²)	3,5 (350)
Skrubberdagi komponentlari bosimi, kPa (kgs/m ²)	15 (1500)
Boyitish zichligi, m ³ /m ² ch	25-35
Gapz qismi kontsentratsiyasi, g/m ³	do 10



SDK tipidagi skrubber

1 – chiqaruvchi patrubka; 2 – kirish patrubkasi; 3 – lyuk; 4 – forsunka; 5 – nasadka; 6 – tomchiushlagich; 7 – tomchiushlagichdan chiquvchi qismi; 8 – chiquvchi patrubka; 9 – tayanch to’rlari; 10 – boyitish sistemasi kollektori; 11 – qobiq

MEHNATNI MUXOFAZA QILISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masalalariga katta ahamiyat berildi. Bu borada insoniyat zararli moddalar bilan ta'sirlanishini oldini olish uchun fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanilmoqda. Mehnat muhofazasi bu insonlarni ishlash vaqtida sog'lig'i, ishlash qobiliyatini, xavfsizligini ta'minlovchi texnik, sanitar gigienik, uyushgan qonunlashtrilgan tadbirdir.

Mehnat muhofazasini amaliy faoliyati mehnat sharoitlarini yaxshilash, kasb kasalliklarini va shkastlanishni oldini olishdan iborat.

O'zbekistonda mehnatni muhofaza qilish borasida bir qancha qonuniyatlar qabul qilingan. Bu qonunlar faqat ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi qoidalarini nazorat qilib qolmay, balki mehnat muhofazasi qonunlari buzulmasligi uchun javobgardir.

“Ustyurtgaz kimyo majmuasi” da ”Mehnatni muhofaza qilish” borasidagi tadbirlar qabul qilingan bo'lib, ular mehnat sharoitlarini yaxshilash va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish borasidagi uslubiy qo'llanmalar, instruksiya ko'rsatmalar, tavsiyalar kabi umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalari O'zbekiston Respublikasi 2009 y 47-son 59 moddasida, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2009 y 16 noyabrda 2042 soni bilan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2000 y 267-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlar to'plami, 2000 y 7-son 39 modda bilan tasdiqlangan.

“Ustyurtgaz kimyo majmuasi” da xodimlar xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari ularning tavsifi, yuzaga kelish ma'nbalari, ishchilarga ta'sir qilish xususiyatlari va salomatlik uchun xavfli darajasi va kelgusidagi oqibatlari to'g'risida ma'lumotga ega. Ish joylaridagi ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoning xavfli hamda zararli omillari to'g'risida ma'lumotlar, ishlab chiqarish muhitining fizik, kimyoviy, radiologik, mikrobiologik va mikroiqlim o'lchovi natijalari, shuningdek og'irligi ish joylarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiya qilinishi bilan tasdiqlanadi.

Korxona o'ta xavfli sharoitda bajariladigan kasblar va ishlar ro'yxatiga ega. Ro'yxatda, aniq te'nologik jarayon, ishlab chiqarish uskunasini, ishlatiladigan xom ashyo va ishlarni amalga oshirish xususiyatlari bilan bog'liq xavflar xisobga olingan.

Barcha xodimlar o'ta xavfli ishlarni bajarishdan oldin, mehnat muxofazasi bo'yicha yo'l - yo'riq olish va ishlarni xavfsiz bajarish usullarini o'zlashtirib olganlar.

Ustyurtgaz kimyo majmuasi, chiqindi tashlash bo'yicha SN-245-71 ga asosan 1 kategoriyaga kiradi. Sanitar ximoya zonasi SNIP-2.01.03-96 ga asosan (1000) m

Uglerod (II) oksidi – rangsiz, hidsiz nihoyatda zaxarli gaz. Ishlab chiqarish binolarida SO ning miqdori 11mg, xavoda 0,03 mg ni tashkil etadi. U avtomobildan chiqayotgan tutun gazlarda xayot uchun xavfli miqdorda bo'ladi. SHu sababli korxonada ish vaqtida xonalar yaxshi shamollatiladi.

